

Feld'egerlik xizmati ko'rsatishga

## ShARTNOMA №18

2022 y. «10» 2022

Guliston shahri

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Davlat feld'egerlik xizmati to'g'risidagi Nizom asosida ish ko'ruchi keyingi o'rnlarda «Bajaruvchi» deb ataladigan O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Davlat feld'egerlik xizmati Guliston shahar bo'linmasi xizmat boshlig'i v.b. G'.N.Xakimov va keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb

ataladigan Cerppagi Baxshi Dzhura Fazilova Bozor - cer  
J. Z. Tursunov ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

### 1. Shartnoma mavzusi

1.1.«Buyurtmachi»ning jo'natmalarini O'zbekiston Respublikasi viloyat markazlarigacha va Toshkent shahri, Guliston shahar bo'yicha qabul qilish va yetkazib berilishini ta'minlash shartnoma mavzusi hisoblanadi.

1.2. «Buyurtmachi»ning jo'natmalarni dam olish va bayram kunlaridan tashqari har kuni soat 09-00 dan 17-00 gacha «Buyurtmachi» yoki «Bajaruvchi»ning binosida qabul qilinadi. Jo'natmalarni Buyurtmachining binosida qabul qilish uchun Buyurtmachi bir kun avval quyidagi (67) 225-35-17, (67) 225-36-80 telefon raqami orqali berilgan buyurtmasi asosida bajariladi.

1.3.«Buyurtmachi»ning binosida jo'natmalar qabul qilinganligi uchun avtotransport berilganligi uchun to'lov, shuningdek har bir jo'natmadan qo'shimcha yig'im undiriladi. Ko'rsatilgan qo'shimcha xizmatlar uchun hisob-kitob amaldagi tarifga muvofiq bajariladi.

### 2. Yetkazib berish shartlari

2.1.«Bajaruvchi» O'zbekiston Respublikasining viloyat markazlarigacha jo'natmalarni «Buyurtmachi» tomonidan ko'rsatilgan manzil bo'yicha qo'lidan qo'lga yetkazib beradi. Agar jo'natmalarni oluvchi viloyat markazidan quyida joylashgan bo'lsa, jo'natmalar maxsus aloqa tarmog'i orqali beriladi.

2.2.Jo'natmalarni yetkazib berish «Bajaruvchi»ning avtotransporti orqali (istisno hollarda «Buyurtmachi»ning avtotransporti orqali), jo'natmalarni oluvchi joylashgan manziliga qarab avia va temir yo'l transporti orqali amalga oshiriladi.

2.3.Zarurat bo'lganda «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» bilan kelishuv bo'yicha jo'natmalarni yo'nalish doirasidan tashqari –feld'egerlar bilan (narochno) yuborishi mumkin. Bunda «Buyurtmachi» amaldagi xarajatlarni tarifga muvofiq to'laydi.

2.4.«Buyurtmachi»ning jo'natmalar bo'limganda yoki jo'natmalar tayinlangan muddatda jo'natishga tayyor bo'limganda, feld'egerning nazorat varag'iga «jo'natmalar yo'q» degan belgi qo'yiladi va «Buyurtmachi»ning imzosi va muhri bilan tasdiqlanadi. Ushbu holatda amaldagi tarifga binoan transport xarajatlari uchun haq to'lanadi.

2.5.«Bajaruvchi» jismoniy shaxslarga, hamda bozorlar, savdo komplekslar yoki turar joylar (uylar) joylashgan manzillar bo'yicha yo'naltirilgan jo'natmalarni qabul qilmaydi va yetkazib bermaydi.